

**AT “Alokabank” Namangan Hududiy kompleks xizmatlar ko‘rsatish
markazi № 01-sonli**

MAJLIS BAYONI

2026 yil 30 aprel

Namangan shahri

Raislik qildi:

**S.Kodirov AT «Alokabank» Namangan Hududiy kompleks
xizmatlar ko‘rsatish markazi direktori v.v.b**

Ishtirok etdilar:

**AT “Alokabank” Namangan Hududiy kompleks xizmatlar
ko‘rsatish markazi o‘rinbosarlari, barcha bo‘lim boshliqlari
va xodimlari, bosh hisobchi va uning o‘rinbosarlari, mini bank
mudirlari va xisobchilari, mijozlarga bevosita xizmat
ko‘rsatuvchi bank xodimlari.**

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 21-apreldagi 147-sonli qarorida berilgan ko‘rsatima va topshiriqlarni ijrosini bo‘limlarda so‘zsiz ta‘minlash yuzasidan.

(S.Kodirov, M.Shokirjanov, A.Raxmanov, M.Muminov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan majlis raisi **S.Kodirov** yig‘ilishni ochib berdi. U o‘z so‘zida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatma va topshiriqlarni ijrosini ta‘minlash maqsadida AT “Alokabank” Namangan Hududiy kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazida xodimlar tomonidan qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiya, ta‘magirlik va poraxo‘rlikning har qanday turlarini oldini olish. Lavozim vazifalarni zamon talablariga muvofiq halol va sidqidildan bajarish hamda bank xodimlari etikasiga qat‘iy rioya qilinishi ta‘minlash. Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar hamda fuqarolarga moliya-bank xizmatlari ko‘rsatilishi borasida mavjud muammolarni o‘rganish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, fuqarolarni qiynayotgan bank-moliya tizimi faoliyatiga aloqador masalalarni shu joyning o‘zida atrofticha o‘rganib chiqish va qonun doirasida hal etish hamda tijorat banklari tomonidan aholi va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida poraxo‘rlik, ta‘magirlik kabi holatlarni o‘rganish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rish lozimligini aytib o‘tdi.

Bundan tashqari AT «Alokabank» Namangan Hududiy kompleks xizmatlar ko‘rsatish markazi Bosh yuriskonsulti **M.Muminov** so‘zga chiqib uz ma‘ruzasida ushbu masala yuzasidan Respublika rahbariyati tomonidan bank tizimi xodimlari oldiga qo‘yilayotgan vazifalar, davlatimiz o‘z oldiga qo‘ygan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda banklarning o‘rni va roli, bu borada Respublika miqyosida olib borilayotgan ishlar qo‘lami va yana oldimizga maqsad qilib olingan dolzarb vazifalar haqida gapirib o‘tib, va dasturlarga kiritilgan barcha loyihalarni o‘z vaqtida moliyalashtirish, aholining keng qatlamlari, eng avvalo kam ta‘minlangan va ish bilan ta‘minlanmagan fuqarolarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish uchun

ularga davlatimiz tomonidan yaratilgan sharoitlar bilan har bir xonadoni chuqur tanishtirish, ularga belgilangan tartibda hech bir sansolarliksiz kredit ajratib berish bugungi kunning eng muhim vazifasi ekanligi alohida ta'kidlandi.

Yig'ilishda, mamlakatimizni rivojlantirish yo'lida har bir fuqaro va xodimlarning o'z vazifalariga sitqidildan yondashishlari bunda, bank filiali xodimlari tomonidan qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yimaslik, korrupsiya, ta'magirlik va poraxo'rlikning har qanday turlarining oldini olish, lavozim vazifalarini zamon talabiga muvofiq halol va sidqidildan bajarish hamda bank xodimlari etikasiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash to'g'risidagi talablarga birma-bir to'xtalib o'tildi hamda bank xodimlaridan ushbu masala yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini bayon etishlari va munosabatlarini ochiq-oydin bildirishlari so'raldi.

Yuqorida belgalangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli ijro etilishi uchun filial xodimlarining shaxsiy javobgarligini yanada kuchaytirish maqsadida, majlis

Q A R O R K I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash to'g'risidagi AT "Aloqabank" Namangan Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi Biznesni rivojlantirish bo'yicha direktori **S.Kodirovning** axboroti ma'lumot va ijro uchun kabul kilinsin;

2. AT "Aloqabank" Namangan Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi barcha xodimlari zimmasiga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining mazmun-moxiyatini o'rganish;

- o'z ish faoliyatlarida lavozim yo'riqnomalariga qat'iy rioya etish, bank mijozlari, tadbirkorlar va omonatchilarning xaq-xuquqlari poymol qilinishiga mutlaqo yo'l qo'yimaslik, mehnat intizomi, ichki ish-tartib qoidalari, "Odob-axloq qoidalari" normalariga qat'iy va og'ishmay rioya qilish;

- korrupsiyaviy holatlarning har qanday turiga yo'l qo'yimaslik, ta'magirlik va poraxo'rlikka qarshi keskin kurash olib borish, salbiy illatlarga batamom chek qo'yish;

- davlat va mahalliy dasturlarga kiritilgan loyihalarga o'z vaqtida bank kreditlarini ajratib berilishida loyiha tashabbuskorlariga yaqindan ko'makchi bo'lish;

- aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, birinchi navbatda kam ta'minlangan va ish bilan ta'minlanmagan fuqarolarga belgilangan tartibda imtiyozli kredit ajratish borasida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish;

- tadbirkorlar va omonatchilarga bank xizmati ko'rsatish saviyasini keskin oshirish, ularning qonuniy talab va istaklarini amalga oshirish yo'lida barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

3. Ushbu qaror ijrosi ustidan umumiy nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Majlis raisi:



S.Kodirov

Bayonlashtiruvchi



S.Bayramova